

ELEKTRON HUKUMAT TIZIMI

*Farg'ona politexnika instituti**Kompyuterlashgan Loyihalash Tizimlari fakulteti**“Intelektual Muhandislik Tizimlari” kaferdasi***G'aybullayev Dostonbek Ravshanjon o'g'li****Muydinov Mahmudjon Muhtorjon o'g'li****Raximov Asilbek Rasuljon o'g'li**

Annotatsiya: *Yurtimizda raqamli boshqarish tizimlarini rivojlantirish doirasida Elektron Hukumat tizimini rivojlantirish, xavfsizlik choralarini ko'rish, uni tog'ri tashkil qilib odamlar uchun qulayliklar yaratish.*

Kalit so'zlar: *Xorij tajribasi, ish samaradorligi kamchiliklari, ta'lim tizimi, maxfiylik, havfsizlik, raqamli tafovut.*

Interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatishning “Elektron hukumat” tizimini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi PR-1989-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasida “elektron hukumat” tizimini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

“Elektron hukumat” tizimining axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari kompleksini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar va loyihalar ro'yxati kompleks dasturi tasdiqlandi.

Kompleks dasturga 22 ta loyiha va 6 ta tadbir kiritilgan bo'lib, ular O'zbekistonda “Elektron hukumat” tizimini joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2013-yilda ishga tushirilgan Yagona portal orqali axborot almashish, aholi va davlat hokimiyati organlarining tadbirkorlar bilan muloqot qilish hamda qator davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda.

Hozirgi (2023) vaqtga kelib “Elektron hukumat” tizimi deyarli barcha soxalarni o'z ichiga qamrab oldi.

Ta'lim;

Tibbiyot;

Davlat hokimiyati;

Vazirliklar;

Axoliga xizmat ko'rsatish obektlari;

Bunga ko'plab soxalarni misol keltirish mumkin. Rivojlanib borayotgan dunyo e'tiborida u bilan hamnafas bo'lish uchun, rivojlanayotgan boshqa davlatlar bilan tenglashish va raqobatlasha olish uchun rivojlanishning bu

bosqichini yurtimizda joriy qilish, uni to'g'ri va xavfsiz tizimlashtirish kunning masalasi.

Xorijda bu qanday yo'lga qo'yilgan?

Bugungi kunda elektron hukumat tizimi Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Singapur, Norvegiya, Kanada, Niderlandiya, Daniya hamda Germaniya singari mamlakatlarda samaradorligini ko'rsatmoqda. Ushbu mamlakatlarda juda ko'plab davlat xizmatlaridan uydan chiqmagan holda, onlayn rejimida foydalanish mumkin. Davlat organlariga so'rovlarga javoblar, turli to'lovlar, rasmiy hujjatlarning namunasini olish, ularni to'ldirish, elektron imzo bilan yuborish, oliy o'quv yurtlarida masofadan turib tahsil olish, ichki ishlar idoralariga ariza bilan murojaat etish va boshqalar shular jumlasidandir. Masalan, Janubiy Koreyada shaxslar rasmiy sayt orqali o'zining murojaati ko'rib chiqilishi qaysi bosqichda ekanligini kuzatib borishi mumkin.

Ish samaradorligini oshirishga nima xalaqit bermoqda?

Elektron hukumat faoliyati samaradorligiga idoralararo elektron aloqalarning yaxlit tizimisiz erishib bo'lmaydi. Mamlakatimizda haligacha Elektron hukumatni rivojlantirish dasturi doirasida tegishli vakolatli davlat organlarining tadbirkorlik sub'yektlarini ro'yxatga olish, ularga litsenziya va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni taqdim qilishga oid ma'lumotlar bazasini integratsiyalash borasidagi vazifalar to'liq ro'yobga chiqarilmagan. Yer uchastkalari ajratish, qurilishga ruxsat berish, mulkka bo'lgan huquqni ro'yxatga olish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish bo'yicha tartib-taomillar interaktiv asosga o'tkazilmagan. "Soliq", "Bojxona", "Litsenziya", "Kommunal" axborot tizimlari majmualari "yagona darcha" tamoyilining barcha tartib-taomili o'tishi mumkin bo'lgan yagona platformaga birlashtirilmagan.

Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2017 — 2021 yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiyalash, ularni zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash kompleks chora-tadbirlari 3 bandiga asosan "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini axborotlashtirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan".

Mazkur konsepsiyada oliy ta'lim muassasalarining o'quv, ilmiy va boshqaruv jarayonlarini axborotlashtirishga qaratilgan ma'lumotlar bazalarini, axborot tizimlarini yaratish, ulardan foydalanish, xizmatlar ko'rsatish hamda

boshqa axborot tizimlari bilan integratsiya qilinadin oliy ta'lim muassasasining "SMART universitet" yagona platformasining asosiy tamoyillarini belgilab beradi.

"SMART universitet" yagona platformasini joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

• oliy ta'lim muassasasining yagona axborot-ta'lim infratuzilmasini yaratish va yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

• o'quv jarayonini boshqarish samaradorligini oshirish;

• jarayonlarni avtomatlashtirish evaziga xodimlar faoliyatini yengillashtirish va axborotlarni olish va yig'ish tezligini oshirish, ichki kommunikatsiya va xujjat almashish jarayonini tezlashtirish;

• ta'lim sifatini oshirish;

• oliy ta'lim muassasasi tashkiliy tuzilmasi doirasida talabalar, xodimlar va o'qituvchilarni shaxsiy ma'lumotlarini saqlash va muassasa kontingenti haqidagi axborotlarni ro'yxatga olish;

• shaxsiy, guruh va kompleks o'quv rejalarini shakllantirish, o'qituvchilarining o'quv yuklamalarini rejalashtirish va yuritish, auditoriya fondlarining bandligini rejalashtirish va nazrat qilish;

• oraliq va yakuniy baholash jarayonlarini tashkil etish;

• talabalarning o'quv va ilmiy faoliyatlarini nazorat qilish, o'quv jarayonida ularning tayyorgarligini nazorat qilib borish va ilmiy loyihalarga jalb etish, talabalarning muassasa bilan moliyaviy aloqalarini nazorat qilish, o'qishdan tashqari tadbirlarga talabalarni jalb etish;

• bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash va monitorinigini yuritish;

• xar xil turdagi (toifadagi) tahliliy ma'lumotlarni yaratish va zarur hisobotlarni shakllantirish;

• ma'muriyat;

• o'qituvchilar va xodimlar;

• talabalar va ularning ota onalari;

• ish beruvchilar hisoblanadi.

Bizning yutuqlarimiz

O'zbekistonda yashovchi 35 million aholining 64 foizidan ko'prog'i Internet foydalanuvchilari hisoblanadi. 2020 yil 5 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari tasdiqlandi. Raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va davlat muassasalarida faol joriy etilmoqda. 100 dan ortiq axborot tizimlari elektron hukumat tizimiga ulangan. EHM tomonidan ishlab chiqilgan, Billing tizimi, idoralararo axborot

platformasi, One ID va boshqa tizimlar. O'zbekistondagi barcha sohalarini raqamlashtirishda muhim ahamiyatga ega

Elektron hukumat tizimining xavfli tomonlari

Elektron hukumat tizimlarini joriy qilish bilan bog'liq ba'zi bir xavf-xatarlar mavjud:

Xavfsizlik xatarlari: Elektron hukumat tizimlariga kiberhujumlar xavfi mavjud bo'lib, bu ma'lumotlarning buzilishi, identifikatsiya ma'lumotlarini o'g'irlash va moliyaviy firibgarlikka olib kelishi mumkin.

Raqamli tafovut: Raqamli tafovutni yuzaga keltiruvchi va ularni elektron davlat xizmatlarida ishtirok etishdan chetlashtirishi mumkin bo'lgan, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda barcha fuqarolar texnologiyadan foydalana olmaydi.

Maxfiylikning yo'qligi: Elektron hukumat tizimlari fuqarolardan shaxsiy ma'lumotlarni talab qiladi va bu shaxsiy ma'lumotlarning etishmasligiga olib kelishi mumkin, chunki ma'lumotlardan jismoniy shaxslarning roziligisiz boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin.

Tizimdagi nosozliklar: Texnik nosozliklar va tizimdagi nosozliklar yuzaga kelishi mumkin va bu elektron davlat xizmatlarining uzluksiz ishlashiga to'sqinlik qilishi, foydalanuvchilar orasida umidsizlikka olib kelishi mumkin.

Cheklangan shaffoflik: Elektron hukumat tizimlarida, xususan, qarorlar qabul qilish jarayonlarida shaffoflik yetishmasligi mumkin, bu esa fuqarolar o'rtasida ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Noto'g'rilik va kamsitish: Elektron hukumat tizimlari shaffof bo'lmagan yoki potentsial noto'g'ri holatlar uchun sinovdan o'tgan algoritmlar orqali qarorlar qabul qilishni institutsionalizatsiya qilish orqali mavjud noto'g'ri qarashlar va kamsitishlarni davom ettirishi mumkin.

Cheklangan javobgarlik: Elektron hukumat tizimlari javobgarlikni cheklashi mumkin, ayniqsa elektron hukumat tizimlarining ishlamay qolishi uchun davlat mansabdor shaxslarini javobgarlikka tortishning aniq mexanizmlari mavjud bo'lmasa.

Shunday ekan elektron hukumat tizimini joriy etuvchi hukumatlar va tashkilotlar ushbu xavflarni bartaraf etish bo'yicha ehtiyot choralari ko'rish va fuqarolar bilan ishonchni o'rnatishga harakat qilishi muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

4. <https://kun.uz/uz/89302078>

5. <https://www.edu.uz/uz/pages/eh>

6. <https://egov.uz/oz>

7. <https://e-gov.uz/about>

8. https://www.researchgate.net/publication/233391382_Risk_and_Remedies_of_E-Governance_Systems